



# M AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogik, metodologik, innovatsion fan va ta'limga oid ilmiy jurnal

№1/2023

Litsenziya raqami: №095310



# M

## AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI



*Elektron nashr. 218 sahifa, 30-oktyabr, 2023-yil.*

### TAHRIR HAY'ATI:

|                                        |                                                                                                                                        |                           |
|----------------------------------------|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---------------------------|
| Qirg'izboyev Abdug'affor Karimjonovich | tarix fanlari doktori, professor                                                                                                       | Bosh muharrir             |
| Ibragimova Gulsanam Ne'matovna         | pedagogika fanlari doktori(DSc), professor                                                                                             | Bosh muharrir o'rinbosari |
| Hamdamova Maxzuna Tursunovna           | pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent                                                                             | Bosh muharrir o'rinbosari |
| Jamoldinova Odinaxon Rasulovna         | pedagogika fanlari doktori, professor                                                                                                  | A'zo                      |
| Djamilova Nargiza Nuriddinovna         | pedagogika fanlari doktori (DSc), professor                                                                                            | A'zo                      |
| Babayeva Dono Razzakovna               | pedagogika fanlari nomzodi, professor                                                                                                  | A'zo                      |
| Sadikova Shoista Akbarovna             | pedagogika fanlari nomzodi, professor                                                                                                  | A'zo                      |
| Jumanova Fotima Uralovna               | pedagogika fanlari nomzodi, dotsent                                                                                                    | A'zo                      |
| Shirbachevna Gulchexra Shakirovna      | pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent                                                                             | A'zo                      |
| Mirzayeva Farog'at Odiljonovna         | pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent                                                                                   | A'zo                      |
| Bafayev Muxiddin Muxammadovich         | psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent                                                                            | A'zo                      |
| Ne'matov Shuhrat yergashovich          | pedagogika fanlari nomzodi                                                                                                             | A'zo                      |
| Ochilov Sevin Rajaboyevich             | Qashqadaryo viloyat Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi Pedagoglarning bilimi hamda ko'nikmalarini baholash sho'basini metodisti | A'zo                      |
| Yuldasheva Dilnoza Bekmuradovna        | Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent                                                                             | A'zo                      |
| Nurkeldiyeva Dilbar Axmedovna          | pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)                                                                                      | A'zo                      |
| Radjapova Zuxra Tirkashevna            | pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent                                                                             | A'zo                      |
| Gaynazarova Gulbahor Abdullayevna      | pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent                                                                             | A'zo                      |

**Muassis:** "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

**Hamkorlarimiz:** Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti,

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti



# MUNDARIJA

|                                                                                                                        |    |
|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----|
| “Ta’lim sifatini oshirish – Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining yakka-yu yagona to‘g‘ri yo‘lidir” .....                  | 6  |
| Qirg‘zboyev Abdug‘affor Karimjonovich                                                                                  |    |
| Ta’lim muassasalarida ma’naviy-ma’rifiy ishlarni takomillashtirish mexanizmlari .....                                  | 8  |
| Ibragimova Gulsanam Ne‘matovna                                                                                         |    |
| Влияние игровой деятельности в процесс изучения английского языка в ДОО .....                                          | 11 |
| Хамдамова Махзуна Турсуновна                                                                                           |    |
| Methodological advancements in the English instruction of preschoolers.....                                            | 15 |
| Asiljonova Shohsanam Doniyorovna                                                                                       |    |
| Yangi O‘zbekiston maktabgacha ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar .....                                   | 18 |
| Babayeva D. R.                                                                                                         |    |
| Maktabgacha yoshdagi bolalarni iqtisodiy tarbiyalashda pedagoglar va ota-onalarning o‘zaro ta’siri .....               | 21 |
| Bozorbayeva Gulruh Alisher qizi                                                                                        |    |
| Zamonaviy sharoitlarda maktabgacha ta’lim tizimida metodik ishlarni tashkil etish.....                                 | 25 |
| Fayziyeva Mabudaxon Muhammadjonovna                                                                                    |    |
| Неполные предложения как объект исследования .....                                                                     | 28 |
| Ибатова Амира Шавкатовна, Юлдашева Дилноза Бекмуродовна                                                                |    |
| Lider va uning fazilatlarini xorijlik olimlar va tadqiqotchilar nigohida .....                                         | 32 |
| Irgasheva Madinabonu Baxromjon qizi                                                                                    |    |
| Ijtimoiy tarbiyada mahallaning o‘rni.....                                                                              | 36 |
| Raximberganova Munajat Muzaffar qizi, Iskandarov Nodirbek Ravshanbekovich                                              |    |
| Maktabgacha yoshdagi bolalarni ijodiy faoliyatga o‘rgatishda STEAM ta’lim texnologiyasining ahamiyati .....            | 38 |
| Kojageldiyeva Aziza Muxsum qizi                                                                                        |    |
| Kredit-modul tizimida mustaqil ta’limni tashkil etishning sharoit va imkoniyatlari.....                                | 41 |
| Mirzayeva Faroxat Odiljonovna, Odiljonova Shohsanam                                                                    |    |
| Tolerantlikning tarixiy-falsafiy va psixologik ildizlari.....                                                          | 46 |
| Bafayev Muxiddin Muxammadovich                                                                                         |    |
| Особенности занятий спортом в подростковом возрасте и их влияние на школьную успеваемость учеников.....                | 50 |
| Ризаев Азизжон Рахимджанович                                                                                           |    |
| Maktabgacha ta’limda zamonaviy axborot texnologiyalari .....                                                           | 54 |
| Marasulova Dono Nigmatullayevna                                                                                        |    |
| Maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarini ma’naviy fazilatlarini shakllantirish texnologiyalari.....      | 59 |
| Matchanov B. O.                                                                                                        |    |
| Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda hayot xavfsizligi ko‘nikmalarini shakllantirishning psixologik xususiyatlari..... | 63 |
| Muratova Munavvar O‘rol qizi                                                                                           |    |
| Развитие речи дошкольников как социально-коммуникативный процесс.....                                                  | 67 |
| Нажмиддинова Гулноза Одилевна                                                                                          |    |
| Bo‘lajak tarbiyachilarning mediakompetentligini oshirish mexanizmlari.....                                             | 70 |
| Nazarmatova Dilshoda Umarali qizi                                                                                      |    |
| Методика развития речи дошкольников.....                                                                               | 74 |
| Очилова Хилола Шералиевна                                                                                              |    |
| Okul öncesi dönemde bulunan çocuklar için anne-babaların çocuk kitapları seçim kriterlerinin incelenmesi.....          | 78 |
| Elem Gökteş                                                                                                            |    |
| Дидактическая игра как средство экологического образования детей дошкольника.....                                      | 87 |
| Равшанова Наргиза Норбоевна                                                                                            |    |
| Отешова Гульнур Кабуловна                                                                                              |    |

|                                                                                                                                                             |     |
|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| Оценка эффективности цифровых технологий по сравнению с традиционными методами управления качеством образования в дошкольных учреждениях.....               | 91  |
| Хайдаров Р.                                                                                                                                                 |     |
| Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda dizaynerlik qobiliyatini rivojlantirish metodikasi .....                                                               | 95  |
| Radjapova Zuxra Tirkashevna                                                                                                                                 |     |
| Развитие коммуникативной компетентности среди будущих дошкольных учителей .....                                                                             | 100 |
| Садикова Шоиста, Тохинова Шохсанам                                                                                                                          |     |
| Maktabgacha ta'limda yuksalish .....                                                                                                                        | 104 |
| Shirbacheyeva Gulchehra Shakirovna, Nuraliyeva Rahbaroy Ravshanbek qizi                                                                                     |     |
| Maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyachilarini kasbga yo'naltirib o'qitishda metodik tayyorgarligini takomillashtirish yuzasidan xalqaro tajribalar ..... | 106 |
| Sultansaidova Mushtariy Abzalxanovna                                                                                                                        |     |
| Model of Professional Competencies Preschool Education Teacher .....                                                                                        | 109 |
| Tokhirova Shokhsanam                                                                                                                                        |     |
| Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda ijtimoiy ongini shakllantirishning metodik shart-sharoitlari .....                                                     | 114 |
| Xo'jamatova X. M.                                                                                                                                           |     |
| Zamonaviy o'zbek oilalarda bolalarni milliy ruhda tarbiyalashda qadriyatlarning o'rni .....                                                                 | 119 |
| Yakubova Zilola Zikirovna                                                                                                                                   |     |
| Maktabgacha yoshdagi bolalarga til o'rgatishda o'yinlardan foydalanish.....                                                                                 | 122 |
| Mirkasimova Zilola Alisherovna                                                                                                                              |     |
| Maktabgacha yoshdagi bolalarni kitob o'qishga qiziqtirishda psixologik qo'llab-quvvatlash .....                                                             | 124 |
| Musratova Zilola Ulugbekovna                                                                                                                                |     |
| Maktabgacha yoshdagi bolalarning shaxslararo munosabati .....                                                                                               | 128 |
| Alimova Gulchehra Qobilovna, Sadikova Durdona Shohasan qizi                                                                                                 |     |
| Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida sahnalashtirish faoliyatini tashkil etish shakllari .....                                                                | 132 |
| Teshabayeva Zamira Sobirovna                                                                                                                                |     |
| Maktabgacha yoshdagi bolalarda qadriyatlar shakllanishida xavotirli holatning ahamiyati .....                                                               | 135 |
| Maxmudova Dilorom Axmadovna                                                                                                                                 |     |
| MTT direktorlarini menejerlik faoliyatiga tayyorlash yo'nalishlari.....                                                                                     | 137 |
| Nabiyev Erkin Esanovich, Xushiyeva Gavxar Mamatkarimovna                                                                                                    |     |
| Xorijiy tillarning psixologik xususiyatlari.....                                                                                                            | 140 |
| Atayev Shukur-Ali Ayub-Aliyevich                                                                                                                            |     |
| Possibilities of Developing Social Competence in Future Educators.....                                                                                      | 143 |
| Khalilova Dilnoza Furkatovna                                                                                                                                |     |
| Bo'lajak o'qituvchilarning innovatsion kompetensiyasini rivojlantirish tamoyillari.....                                                                     | 146 |
| Jumanova Fatima Uralovna                                                                                                                                    |     |
| Talabalarining kasbiy kompetentligini integrativ yondashuv asosida rivojlantirish texnologiyasi.....                                                        | 149 |
| Kamalova Gavhar Akbarovna                                                                                                                                   |     |
| Til leksik sistemasining kognitiv aspekti nazariyasi.....                                                                                                   | 152 |
| Muzaffarova Nodira Mardonovna, Umarova Obida Avazxonovna                                                                                                    |     |
| Madaniyatlararo muloqot asosida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning samaradorligi.....                                  | 156 |
| Ne'matova G. A.                                                                                                                                             |     |
| Soha mutaxassislarining ijtimoiy psixologik bilimdonligini oshirish muammolari .....                                                                        | 160 |
| Norboyeva Dilafruz Jumakulovna                                                                                                                              |     |
| Abdulla Oripov she'riyatida qush nomlari uslubiy vosita sifatida.....                                                                                       | 163 |
| Yuldasheva Dilnoza                                                                                                                                          |     |
| Talabaning tadqiqotchilik qobiliyatini rivojlantirishda ilmiy uslubning ahamiyati.....                                                                      | 166 |
| Yuldasheva Dilnoza Bekmurodovna                                                                                                                             |     |
| Raxmatova Saodat Amrakulovna                                                                                                                                |     |
| Ona bilan munosabatning o'smir tomonidan guruhni idrok etilishiga ta'sir xususiyatlari .....                                                                | 172 |
| Abdullayeva Dilbar Ubaydullayevna                                                                                                                           |     |



|                                                                                                                       |     |
|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| Основные аспекты передачи способностей и генетических характеристик от родителей.....                                 | 176 |
| Тургунов Абдурашид Абдуманнобович                                                                                     |     |
| Onalik munosabati autizm sindromli bolalarni ruhiy rivojlanishining omili sifatida.....                               | 182 |
| Asraxonova E'tibor Abduvaxob qizi, Lutfullayeva Iroda Abduvaxob qizi                                                  |     |
| Psixik yetuklik bolaning maktab ta'limiga psixologik tayyorligi ko'rsatkichi sifatida .....                           | 186 |
| Jalilova Saboxat Xalilovna                                                                                            |     |
| O'smirlar tasavvurida stressogen ta'sirlarning psixologik tahlili .....                                               | 191 |
| Ismoilova Nurjaxon Zuxuriddinovna                                                                                     |     |
| Seminar mashg'ulotlarini samarali tashkil etishning "kouching" shakli .....                                           | 196 |
| Mamatkulova Kimyoxon Abdujalilovna                                                                                    |     |
| Shaxs o'zini o'zi faollashtirishi tushunchasining ilmiy mohiyati .....                                                | 199 |
| Qurbonboyev Azimbek Nazirboy o'g'li                                                                                   |     |
| Ma'naviy taraqqiyotni ta'minlashda tarbiya texnologiyalaridan foydalanish samaradorligi .....                         | 202 |
| Muxsiyeva Aziza Shamsiddinovna                                                                                        |     |
| Pedagoglarda frustratsion tolerantlik namoyon bo'lishining psixologik xususiyatlari .....                             | 205 |
| Nurmatov Nurhayot Nurziyot o'g'li                                                                                     |     |
| Kreativ yondashuv asosida talabalarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlashning<br>pedagogik-psixologik xususiyatlari..... | 209 |
| Farxodov Fozil Baxrom o'g'li, Adizova Gulzoda Mehridinovna                                                            |     |
| Социально-педагогическая компетентность воспитателя ДОО .....                                                         | 212 |
| Ширбачеева Г. Ш., Тиллябаева М. Х.                                                                                    |     |
| Inklyuziv ta'lim jarayonida o'quvchilarni kasbga yo'naltirishning o'ziga xos qirralari.....                           | 215 |
| Xusanov Samariddin Maxmadaminovich                                                                                    |     |



# MAKTABGACHA KATTA YOSHDAGI BOLALARDA IJTIMOIY ONGNI SHAKLLANTIRISHNING METODIK SHART- SHAROITLARI

Xo'jamatova X. M.

Qo'qon davlat universiteti "Ta'lim" kafedrası katta o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Maqolada jahonda uzluksiz ta'lim tizimining barcha bosqichlarida ta'lim oluvchilarning ijtimoiy moslashuvchanlik ko'nikmalarini shakllantirish, o'z-o'ziga ishonchni tarkib toptirish va o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish qobiliyatini rivojlantirishga katta ahamiyat qaratilayotgani yoritilgan. Shuningdek, ilk yoshdan hayotiy ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim muhiti barqarorligini ta'minlash, o'rganishga o'rgatish tamoyili asosida ta'lim oluvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirish, samarali muloqotga kirishish ko'nikmalarini tarkib toptirish dolzarbligi asoslangan. Mazkur jarayonda shaxsiy faoliyat tajribasiga asoslangan tarbiya texnologiyalaridan samarali foydalanish, bolalarda shaxslararo munosabat madaniyatini rivojlantirishning samarali mexanizmlarini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etishi ilgari surilgan.

**Kalit so'zlar:** Inson odobi, xulq-atvor, til, so'zlash qoidasi, shirinso'z, yaxshi so'z.

**Abstract:** The article highlights the fact that at all stages of the continuous education system in the world, great importance is attached to the formation of social flexibility skills, self-confidence, and the development of the ability to realize their potential. It is also important to estimate the stability of the educational environment aimed at forming life skills from an early age, to develop independent thinking of students based on the principle of teaching to learn, and to acquire the skills of effective communication. In this process, the effective use of educational technologies based on personal activity experience, the development of effective mechanisms for the development of the culture of interpersonal relations in children, is assumed to be of great importance.

**Key words:** Human manners, behavior, language, rules of speaking, sweet, good words.

**Аннотация:** В статье поясняется, что на всех этапах системы непрерывного образования в мире большое значение придается формированию навыков социальной гибкости, уверенности в себе, развитию способности реализовать свой потенциал. Также важно оценить устойчивость образовательной среды, направленной на формирование жизненных навыков с раннего возраста, развитие самостоятельного мышления учащихся по принципу обучения обучению, приобретение навыков эффективного общения. В этом процессе большое значение придается эффективному использованию образовательных технологий, основанных на опыте личной деятельности, разработке эффективных механизмов развития культуры межличностных отношений у детей.

**Ключевые слова:** Человеческие манеры, поведение, язык, правила разговора, хорошие слова.

Respublikamizda maktabgacha ta'lim tizimiga o'qitishga doir yangicha yondashuvlarni keng joriy etish, kompetensiyaviy yondashuv asosida tarbiyalanuvchilarda hayotiy ko'nikmalarni rivojlantirish, ta'lim oluvchilarda ijtimoiy faollik va shaxsiy kompetentlikni shakllantirishga katta e'tibor qaratilmoqda. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida "Yosh avlodning ijodiy va intellektual salohiyatini qo'llab-quvvatlash va ro'yobga chiqarish, bolalar va yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini shakllantirish, ularni jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish"<sup>1</sup> kabi muhim vazifalar belgilab berildi. Bu esa, ijtimoiy ongni shakllantirish tuzilmasi va komponentlari, "Tarbiya" mashg'ulotlari orqali bolalarda ijtimoiy ongni shakllantirishning metodik asoslarini takomillashtirishni taqozo etadi.

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son Farmoni. – O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017-y., 6-son, 70-modda.



O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrdagi O'RQ-637-son "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2018-yil 5-apreldagi PQ-3651-son "Maktabgacha ta'lim tizimini yanada rag'batlantirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2019-yil 8-maydagi PQ-4312-son "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 13-maydagi 391-son "Maktabgacha ta'lim muassasalari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa mehyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga xizmat qiladi.

Maktabgacha katta yoshdagi bolalar bilan "Tarbiya" ta'limiy faoliyati jarayonida amalga oshirildi. Buning uchun "Tarbiya" ta'limiy faoliyati uchun suhbat mavzulari va ularning mazmuni ishlab chiqildi:

### Mening qadrdon O'zbekistonim



Maktabgacha yoshdagi bolalarning tug'ilib o'sgan ona-Vatani, shahri, qishlog'i, mahallasi, xalqi, urf-odatlar, tarixiy joylari haqida ilk tushunchalar berish.

O'zbekiston Respublikasi Davlat ramzlari: bayroq, gerb, madhiya bilan tanishtirish va ularga nisbatan hurmat tuyg'usini shakllantirish hamda davlat ramzlarining mazmun-mohiyatini anglash va hurmat bilan qarash zarurligi haqida tushunchalar berish.

### Mening shahrim – mening mahallam



Maktabgacha yoshdagi bolalarga tug'ilib o'sgan ona shahri, qishlog'i, mahallasi, tarixiy joylari haqida ilk tushunchalarni berish.

Uy manzilini to'liq aytishga o'rgatish. Shahridagi, hududidagi tarixiy obidalar, qadimiy yodgorliklar, zamonaviy inshootlar haqida tushuncha berish. Maktabgacha yoshdagi bolalarda ona shahriga nisbatan mehr tuyg'usini rivojlantirish va ona shahri haqidagi fikrlarini nutqda ifodalay olish malakasini takomillashtirish.

### Men va mening oilam



Oila tushunchasiga izoh. Oila muqaddas ekanligi, oilada katta-kichikning ahil yashashlari, oilaning kattalari buva-buvi, ota-ona ekanligi. Oilada ota-ona, aka-uka, opa-singillarning bo'lishi. Ahil oilalarni rasmlar orqali izohlash. Oilada maktabgacha yoshdagi bolalarning yashash tarzi, kattalarni hurmat qilish, kichiklarga g'amxo'r bo'lish. Oilada hamjihatlik, ahillik, o'zaro yordam oila baxtining asosi ekanini uqtirish. Oila a'zolari: ota-ona, aka-uka, opa-singil, qon-qarindoshga bo'lgan hurmat hissini tarbiyalash.

### Sog' tanda – sog'lom aql



Maktabgacha yoshdagi bolalarga tozalik – bu salomatlik ekanligini tushuntirish. Salomatlikning bosh mezonini toza, ozoda yurish, ertalab uyqudan turganda yuz-qo'llarni yuvish, keyin sochiqqa artish. Yotish oldidan tishlarni tozalash, qo'l-oyoqlarni yuvish, sochiq va dastro'moldan to'g'ri foydalanishni tushuntirish. Maktabgacha yoshdagi bolalarga qo'l yuvish, tish yuvish qoidalarini tushuntirish. Qo'l, oyoq va badan uchun foydalaniladigan sochiqlarni farqlashga odatlantirish. Salomatlik haqida allomalar o'g'itlari va rivoyatlaridan o'qib berish.



### Men va mening do'stlarim

Maktabgacha yoshdagi bolalarga "O'rtoqlik" tushunchasiga izoh berish. Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ahil bo'lib o'ynash, o'zaro yordam berish va ko'maklashish – bu o'rtoqlik ekanligi. Maktabgacha yoshdagi bolalar hamjihat bo'lib o'ynayotgan yoki mehnat qilayotgan holatini rasmlar orqali izohlash. Maktabgacha yoshdagi bolalarning bir-biriga mehribon, ahil, g'amxo'r bo'lishlarini tushuntirish. O'rtoqlari bilan yonma-yon o'ynay olishi, o'yinchoqlarini boshqa maktabgacha yoshdagi bolalar bilan o'rtoqlashishi, tengdoshlarining kayfiyatini, xursand yoki xafa ekanligini anglash va ularga to'g'ri muomala qilish. "Xafa bo'lma, men senga yordam beraman" kabi gaplarni aytishga o'rgatish. Mehnat faoliyatida o'rtog'iga yordam berish, o'rtog'ining yutuqlaridan quvonish, boshqalarning mehnati natijalariga hurmat bilan qarash kabi ezgu xislatlarni shakllantirish. Mavzuga mos hikoya va rivoyatlar o'qib berish.

### Vatan himoyasi – yuksak jasorat

Maktabgacha yoshdagi bolalarning O'zbekiston harbiy qo'shinlari va ularning vazifasi, 14-yanvar Vatan himoyachilari kuni ekanligi haqida tasavvurlarini kengaytirish. Maktabgacha yoshdagi bolalarda Vatanga muhabbat, uni ko'z qorachig'idek asrash hissini tarbiyalash.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda harbiy qo'shinlarga nisbatan qiziqish uyg'otish orqali botirlik, jasurlik, vatanparvarlik tuyg'usini singdirib borish. Maktabgacha yoshdagi bolalarga tartib-intizom qoidalarini o'rgatishda davom etib, yaxshi, yomon, mumkin emas degan tushunchalarini badiiy adabiyotlar orqali tushuntirib borish.



### Xushmuomalalik alifbosi

Inson odobini, xulq-atvorini ko'z-ko'z qiladigan til xususida, so'zlash qoidasi haqida tushuncha berish. Maktabgacha yoshdagi bolalarni shirinso'z bo'lishga da'vat etish. Avvalo, shirinso'zlik nima ekanini tushuntirish. Shirinso'zlik – bu kishining dilini yayratadigan, ko'nglini ko'taradigan qilib so'zlash. Og'izdan doimo yaxshi so'z chiqishiga harakat qilish. Avval o'yla, keyin so'yla. Inson xatoni ko'proq o'z tili bilan sodir qilishi. Mavzu bo'yicha Abu Ali Ibn Sinoning hikmatli so'zlaridan keltirish. Mavzuga bog'liq hikoya o'qib berish.



Bolalarni telefonda so'zlashish qoidalarini bilan tanishtirish. Telefondan qo'ng'iroq ovozi eshitilganda "Labbay", deb go'shakni ko'tarish, suhbatdosh bilan, albatta, "Assalomu alaykum" deb salomlashish, suhbat chog'ida "Labbay", "Marhamat", "Uzr" kabi so'zlarni ishlatish. Bolalar bir joyga telefon qilsalar, qisqa va aniq gapirishga o'rgatish.

Bolalarga "Assalomu alaykum" "Sizga salomatlik tilayman", degan mahnoni anglatga, "Vaalaykum assalom" – "Sizga ham salomatlik tilayman" ekanligini tushuntirish. O'zbekona milliy salomlashishning o'ziga xosligi: tabassum, ochiq chehra samimiy mehr bilan bir-biriga boqish, "Assalomu alaykum" deb salomlashganda ochiq chehra va tabassum bilan salom beruvchi, alik oluvchilarning tovushlari bir-birlariga eshitarli bo'lishi kerakligi, agar bir kishiga ikkita kishi bir vaqtda salom bersalar, ularning har biriga alohida-alohida javob qaytarishi lozimligini tushuntirish. Salom-alikning mohiyatini chuqur tushunib yetishga, qadriga yeta olish, to'g'ri salomlashishga o'rgatish. "Assalomu alaykum" iborasi haqidagi hikoyasidan o'qib berish.

### O'zbekistonning buyuk allomalari

Maktabgacha yoshdagi bolalarni tariximiz va Sharqning buyuk allomalari, ularning hayoti hamda ijodi bilan tanishtirishni davom ettirish. Yosh avlodni ona-Vatanga, ota-bobolar merosi va pand-nasihatlariga sadoqat ruhida tarbiyalash.

Ulug' allomalar: Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Alisher Navoiy, Mirzo Ulug'bek, ulug' sarkardalar Amir Temur, Jaloliddin Manguberdi, Zahiriddin Muhammad Bobur haqidagi ilk tushunchalarini aniqlash va mustahkamlash. Maktabgacha yoshdagi bolalarni ota-bobolarimizni tanishga, ulardan faxrlanishga da'vat etish.





### Maktabgacha yoshdagi bolalarga xos fazilatlar

Maktabgacha yoshdagi bolalarni ota-onasiga, oshxona ishlariga yordam berishga odatlantirish. Dangasalik yomon illat ekanligi haqida tushuncha berish.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni saranjom-sarishta bo'lishga o'rgatish: o'yinchoqlar, kitoblardan va mehnat qurollaridan ehtiyotkorlik bilan foydalanish, buyumlarni asrash, ardoqlash kerakligini tushuntirish. Maktabgacha yoshdagi bolalarda buyumlarga nisbatan ongli munosabatni tarbiyalash. Mavzu bo'yicha hikoya va rivoyat o'qib, uni sharhlash.

### O'z-o'zingizga xizmat qilishni o'rganing

Maktabgacha yoshdagi bolalarga har kimning o'z xizmati borligi, ularga o'zlaridan kattalarga ish buyurmaslik kerakligini tushuntirish. Maktabgacha yoshdagi bolalarga o'zini parvarishlash ko'nikmalarini shakllantirish: mustaqil yuvinish, tozalikka rioya qilish, ozodalikka va tartibga odatlantirish, tashqi ko'rinishdagi kamchilikni o'z vaqtida bartaraf qilish, o'z-o'ziga xizmat qilish jarayonida bolada uyushqoqlikni va maqsadga qaratilganlikni, madaniy axloq ko'nikmalarini shakllantirish.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda mustaqil ravishda xonasini yig'ishtirish va o'yinchoqlarini o'z joyiga terib qo'yish, o'rin-joylarini yig'ishtirish, ko'rpa-yostiqlarning jildini kiydirish, choyshablarni tekislab chiqish, ularni almashtirishda kattalarga yordam berish, shaxsiy buyumlarini toza saqlash ko'nikmasini mustahkamlash.

### Qush va jonzotlarga g'amxo'rlik



Maktabgacha yoshdagi bolalarga uy hayvonlari mushuk, kuchuk, sigir, qo'y, echki, quyon, qushlardan musicha, chumchuq haqida tushunchalarini mustahkamlash hamda jonzotlarni asrash va avaylash har bir insonning vazifasi ekanligini tushuntirish. Ularni parvarish qilish, ochlikdan qutqarish har birimizning vazifamiz ekanligini tushuntirish. O'.Umarbekovning "Mehr" hikoyasini o'qib berish.

### Agar begona kishi uyga kelsa

Bola uyda yolg'iz bo'lganida begona kishi eshikni taqillatsa, bola o'zini qanday tutishi to'g'risida tushuncha berish. "Agar begona kishi uyga kelsa" mavzusida turli muammoli vaziyatlarni bolalar bilan hal qilish. Bolalar bilan "Men va notanish kishilar" mavzusida turli amaliy mashg'ulotlar o'tkazish.

### Piyodalar yurishi uchun ajratilgan joy

Bolalarni ko'chada yurish qoidalari, yo'l harakati qoidalari bilan tanishtirish, yo'lka nima uchun ajratilganligini, odamlarni ko'chani kesib o'tish uchun ajratilgan joydan yurish kerakligini, chorraha nimaligini o'rgatish. Yo'lovchilar o'tadigan yo'llardan (er osti va yer usti) foydalanishga o'rgatish.

Bolalarga ko'chani qanday qilib kesib o'tishni tushuntirish, svetofor nima, undan nima uchun va qayerda foydalanish kerakligini tushuntirish, uning tasviri, belgilari bilan tanishtirish. Svetoforda yongan chiroqlarga qarab harakat qilishga o'rgatish.

### Transportda o'zini tutish qonun-qoidalari

Bolalarni jamoat transportida o'zini tutish qonun-qoidalari bilan tanishtirish. Bu qoidalar:

- Avtobus, tramvay, trolleybusning old eshigidan chiqish;
- Kichik yoshdagi bolalarga transport vositasida ota-onasiz yolg'iz yurish man qilinishini tushuntirish;
- Transportda yurgan vaqtda boshqalarga xalaqit bermasdan so'zlashish;
- Transport eshigining oldida turish man qilinishini tushuntirish;
- Ochiq oynadan bosh va qo'lni chiqarish mumkin emasligini qayd etish;
- Katta yoshdagi bolalar kichik yoshdagi bolalar bolali ayol va nogironlarga joy berish kerakligini tushuntirish.

### Agar bola ko'chada yo'qolib qolsa

Agar bola ko'chada yo'qolib qolsa, darhol kattalarga murojaat qilish lozimligini va u yo'qolib qolganligini aytishni uqtirish, o'z manzilgohini, telefon raqamini, o'z ismini va familiyasini bilishi kerakligini uqtirish.

Bu egallangan malakalarni mustahkamlash uchun hayotiy vaziyatlardan, bolalar ishtirok etgan sahna asarlaridan, ertak qahramonlaridan foydalanish.

### Yong'in

Bolalarga yong'in – bu katta ofat ekanligini tushuntirish. Yong'inning kelib chiqish sabablari va oldini olish yo'llari haqida tushuncha berish. Gugurt bilan o'ynamaslik kerakligini tushuntirish. Yong'inga qarshi qonun-qoidalar bilan tanishtirish. Yong'in o'chiruvchilarning xavfli mehnatlari bilan tanishtirish, ularga nisbatan muhabbat uyg'otish. Olovning zararli va foydali tomonlarini tushuntirish. Kuyish jarayonida beriladigan birinchi yordam elementlari bilan tanishtirish. Yong'in chiqaruvchi narsalar bilan tanishtirishda davom etish. Yong'in chiqqan vaqtda "101" qisqa raqamiga telefon qilish kerakligini uqtirish.



### Zilzila

Bolalarni yer qimirlashi va uning belgilari bilan tanishtirish, yer qimirlaganda bolalar o'zlarini qanday tutishlari kerakligi haqida tushuncha berish. Yer qimirlagan vaqtda berkinish mumkin bo'lgan xavfsiz yerlar bilan tanishtirish.

### Suv toshqini

Bolalarga sel va ko'chkilar haqida tushuncha berish. Sel va ko'chki vaqtida o'z hayotlarini saqlash uchun xavf-xatarsiz joy bilan tanishtirish. Sel va ko'chki vaqtida olgan jarohatlarga ko'rsatiladigan birinchi yordam elementlari bilan tanishtirish.



Tadqiqot doirasida "Tarbiya" ta'limiy faoliyatiga doir quyidagi zamonaviy yondashuvlar mazmuni aniqlashtirildi.

#### 1. Faoliyatga yo'naltirilgan yondashuv

Mazkur yondashuvning mohiyati – bixevioristik yo'nalganlik, tarbiyani shaxsning xulq-atvoriga ta'sir ko'rsatadigan ijtimoiy pedagogik ta'sir sifatida qarash; har bir pedagogik ta'sir tarbiyalanuvchida uning so'zlari, xatti-harakati yo amallarida namoyon bo'ladigan ma'lum javobni yuzaga keltiradi.

Xususiyatlari – tarbiya dasturining mavjudligi, tarbiya tizimining aniq tashkil qilinganligi, aniq qoida va bahslashuvning ahamiyatga egaligi.

Faoliyatga yo'naltirilgan yondashuvning ahamiyati shundan iboratki, u tarbiyaviy ideal, tarbiya dasturi, aniq faoliyat yuritadigan tarbiya tizimi, tartib, intizomlilik, "bolalarcha o'zboshimchalik"ni bartaraf qilishni o'z ichiga oladi. Zamonaviy ma'noda bu yondashuv axloqiy-insonparvar qadriyatlarning shaxsiy ahamiyatli ma'nosini bilish, ularni motivatsion-irodaviy va emotsional darajada o'zlashtirish sifatida qaraladi.

Faoliyatga yo'naltirilgan yondashuv uchun tarbiya jarayonini anglashning chiziqli tamoyili xarakterli: har bir pedagogik ta'sir tarbiyalanuvchining ma'lum javobi(so'z, xatti-harakat, amal)ni ko'zda tutadi.

#### 2. Aksiologik yondashuv

Mohiyati – insonning jamiyatdagi hayotining o'zini qadriyat sifatida qaraydigan asosiy falsafiy qadriyatlar nazariyasi; tarbiya hayotga taryorlashga, shaxsiy qadriyatli yo'nalganlik va shaxsning munosabatlarini shakllantirishga qaratilgan. Tarbiya qadriyatlarni o'zlashtirish va interiorizatsiyalash jarayoni sifatida tashkil etiladi.

Tarbiyaviy qadriyatlar deganda esa, ijobiy tarzdagi obh'ektiv – ijtimoiy shart-sharoitlar, munosabatlar orqali tarbiyalanuvchi shaxsiga samarali ta'sir ko'rsatuvchi moddiy va mahnaviy voqelik tushuniladi. Tarbiyaviy qadriyatlar o'zida ota-onalar va pedagoglar tarbiyalanuvchi shaxsida tarkib toptirishni xohlaydigan, fuqarolik jamiyati uchun foydali, mazkur ijtimoiy sharoitda muhim va zaruriy ahamiyat kasb etuvchi fazilat, sifat, xohish-istak, intilish kabilarni aks ettiradi.



**Muharrir:** Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2023. № 1**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

“Maktabgacha va maktab ta’limi”  
jurnali

26.06.2023-yildan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti  
Administratsiyasi huzuridagi Axborot  
va ommaviy kommunikatsiyalar  
agentligi tomonidan №C-5669245  
reystir raqami tartibi bo‘yicha  
ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Litsenziya raqami: №095310

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga  
ilmiy maqola, reklama materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: [sq143235@gmail.com](mailto:sq143235@gmail.com)

Bot: [@iqtisodiyot\\_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Тел.: 93 718 40 07

**Manzilimiz: Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod  
tumani 15-mayze 19-uy**